

Ismat Naimov - Bukhara State University

Doctor of Philosophy

Sarvinoz Zaripova - Bukhara State University

PhD student

Received 1th December 2022, Accepted 5th December 2022, Online 12th December 2022

"UMARI SANI" - A MAJOR FIGURE OF THE MANGITIC DYNASTY

Abstract. In this scientific article, the next representative of the Mangit dynasty, who lived in Central Asia at the end of the 18th century, was glorified as "Umari Soni" and "the infallible ruler", had his place and position and ruled - Amir Shahmurad's coming to power in Bukhara and the unique reforms implemented in state administration, as well as the fact that Shahmurad's father, Amir Daniyalbi, renewed some of the rules, united the regions that had been scattered for many years, and greatly strengthened the state apparatus, are recognized by local and foreign historians. extensive information is given about the research and analysis.

Key words: Amir, emirate, Mangit dynasty, kenagas, state administration, reform, army, embassy, economy, politics, Russia, Ottoman Turk, war, Bukhara, qazi, ghulam, shaykhulislam

«УМАРИ САНИ» – КРУПНЫЙ ДЕЯТЕЛЬ МАНГИТСКОЙ ДИНАСТИИ

Аннотация. В данной научной статье следующий представитель династии мангытов, живший в Средней Азии в конце XVIII века, прославляемый как «Умари Сони» и «непогрешимый правитель», имел свое место и положение и правил – Amir Шахмурад приход к власти в Бухаре и уникальные реформы, проведенные в государственном управлении, а также тот факт, что отец Шахмурада, Amir Даниялби, обновил некоторые правила, объединил разрозненные на долгие годы регионы и значительно укрепил государственный аппарат, признаны отечественными и зарубежными историками, дается обширная информация об исследованиях и анализе.

Ключевые слова: Amir, династия Мангытов, Глава государства, Реформа, военнослужащие, Посольство, Территориальное Управление, Экономика, Политика, Россия, Османский турок, Война, Бухара, Кази, Гулам, Шейхулислам.

“UMARI SONIY” MANG’IT HUKMDORLARINING YIRIK NAMOYONDASI

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada O’rta Osiyoda XVIII asr oxirida yashab, “Umari Soniy” hamda “Amiri ma’sum” deb ulug’langan, o’z o’rmi va mavqeyiga ega bo’lgan hamda hukmronlik qilgan Mang’itlar sulolasining navbatdagi vakili – Amir Shohmurodning Buxoroda hokimiyatga kelishi va davlat boshqaruvida amalga oshirilgan o’ziga xos islohotlarining mazmun-mohiyati haqida fikrlar berilgan. Shuningdek Shohmurodning otasi Amir Doniyolbiy davridagi ayrim qoidalarni yangilagani, ko’p yillardan buyon tarqoq holda bo’lgan hududlarni birlashtirib, davlat

boshqaruvi tizimini ancha mustahkamlagani, mahalliy va xorijiy tarixchilar tomonidan o'rganilib tahlil etilgani haqida keng ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Amir, amirlik, Mang'it sulolasi, kenagas, davlat boshqaruvi, islohot, qo'shin, elchilik, iqtisod, siyosat, Rossiya, Usmonli Turk, urush, Buxoro, qozi, g'ulom, shayxulislom.

KIRISH (INTRODUCTION)

Bilamizki, Buxoro o'lkasi ko'p ming yillik tarixga ega bo'lib, ko'plab sulolalar tomonidan boshqarilgan. "Buxoro" so'zi ham turli davrlarda turlicha talqin qilinib, asosiy ma'nosi "ilm" demakdir. Muhammad Ali Baljuvoni o'zining "Tarixi nofeiy" kitobida quyidagicha yozadi: "Buxoro so'zining asl ma'nosi ilmdir. Bu shaharda ulamo, fuzalo, sulaho (solih odamlar) ko'pdir. Shuning uchun ham "islom markazi" deb nom berganlar", - deb yozgan edi[1]. Sayyid Mansur Olimiyning "Buxoro-Turkiston beshigi" asarida Buxoroda hukmronlik qilgan sulolalarni aytib o'tadi va bevosita mang'itlar haqida to'xtalib, quyidagilarni yozgan: "Mang'itlar va kenagaslar Movaraunnahrdagi ikki qabila bo'lib, doimo bir-bilan ixtilofda bo'lib kelgan. O'zaro janglar 30 yil davom etdi. Kenagaslar Shahrisabz shahrida, mang'itlar Qarshi va unga qo'shilgan joylarda istiqomat qilganlar. Mang'it so'zining ma'nosi "o'ldirmoq", kenagas so'zining ma'nosi esa "orqaga quvmoq, haydamoq" degan ma'nolarni bildirishini aytib o'tgan[2].

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW)

Bu davr yuzasidan biz yetarlicha manbalarga egamiz va voqealarni manbalarga suyangan holda chuqur tahlil qilishga qodirmiz. Ammo sovet tarixshunosligida mafkuraning ta'siri kuchli darajada bo'lganini inobatga oladigan bo'lsak, ba'zi bir ma'lumotlarni tarixiy tahlidan o'tkazishga to'g'ri kealdi. Ayniy S, Razzoqov D.X, Herman Vamberi, Мирза Сирожиддин Hakim Buxoriy Mirzo Somiy va boshqa mualliflar XVIII-XIX asrlarda Buxoro-Eron munosabatlarida Buxoro, Hirot, Mashhad, Marv, Seraxs, Cho'rjo'y, Maymana, Kirmonshoh, Nishopur, Sabzavor kabi shaharlar muhim rol o'ynaganligini yozib qoldirgan.

Mavzuga doir adabiyotlar quyidagicha guruhlariga bo'linadi:

1. Mahalliy matbuot materiallari;
2. Esdaliklar, qaydlar, esdaliklar;
3. Chor rossiyasi, sovet davri matbuoti materiallari va ushbu davrda olib borilgan tadqiqotlar;
4. Mustqailik yillarida yurtimizda va horijda chop etilgan tadqiqotlar,

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY)

Tadqiqot ishi tarixiylik tamoyili, xronologik va qiyosiy tahlil usullariga tayanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS)

Muhammad Rahimxon Abulfayzxonning farzandi Abdulmo'mindan so'ng, amirlar maslahati bilan hijriy 1166 (1753) yilda shohlik tojini boshiga kiyib, hukmronlikni boshladi va barcha amirlar va hatto fuqarolarga hadyalar berib hammani o'ziga jalb qiladi, lekin ko'p vaqt o'tmay Nurota, G'uzor, Shahrisabz, Hisor hokimlari bo'ysunmaslikka urinadilar va Muhammad Rahimxonga qarshi jangga kiradilar. Bu jang 10 yilcha davom etdi va Muhammad Rahimxon isyonni bostirdi, barcha viloyatlar uning tasarrufiga o'tadi. Shundan so'ng Samarqandni ishg'ol qilishga kirishadi, natijada Urgut, Jizzax, O'ratepa, Xo'jandni qo'lga kiritib, xorazmga lashkar tortadi. So'ngra, janglar natijasida vayron bo'lgan shaharlarni obod etishga kirishadi. 12yil hukmronlik qilib, 45 yoshida vafot etadi va ajdodlari qabristoniga dafn etiladi[3]. Uning o'g'li bo'lmaganligi bois Norbo'tabiyning o'g'li Fozil To'ra Muhammad Rahimxon qizi tomonidan podshoh etib ko'tariladi.

Amir Doniyol Muhammad Rahimxonning amakivachchasi Fozil To'rani taxtdan chetlashtirib, Chingizxon avlodidan bo'lgan Abulg'ozixonni taxtga o'tkazib, uning nomiga xutba o'qitiradi va amalda o'zi mamlakatni boshqara boshlaydi. Amir Doniyol xudojo'y, parhezkor inson bo'lish bilan birga Qur'oni Karim hofizu ham edi. Qur'oni karimni ozining chiroyli husnixati bilan ko'chirib odamlarga sovg'a qilgan. Maoshi Buxoro tangasi bilan ikki tangani tashkil qilardi. Saroyda kanizak va g'ulomlarni saqlamas edi. Uydagi ro'zg'or ishlarini xotini bajargan. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, Doniyol otaliq kamtarona hayot kechirgan, misol sifatida shuni aytish mumkinki: amir Doniyol o'g'lining oyog'ida iydi qurbon kuni kiyadiga kovushi yoq edi va bundan otasiga shikoyat qiladi. Yana aytishlaricha amir Doniyol iydda xarid qilmoq uchun o'z oylik maoshining bir qismini oldinroq berishni so'rab xazinaga maktub yozgan. Xazina mutasaddulari unga „ oy oxirigacha sabr qiling “mazmunida maktub yozgan, bu javobni o'qib amir Doniyolni xushi boshidan uchdi. Birozdan so'ng o'g'liga qarata dedi: „Iyd ayyomini oyoq kiyimsiz o'tkazishga sening kuching yetadi, lekin meni oyni oxirigacha senga kovush olib berishga imkonim yoq“[4]. Amir Doniyol 28 yil hukmronlik qilib o'tdi. Bahouddin Naqshband qabristoniga dafn etiladi. Uning ikki nafar o'g'li bo'lib, eng kattasi “jannatmakon”, “amiri ma'sum” taxallusi bilan mashhur bo'lgan Shohmurodbiy edi[5].

Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda, Amir Shohmurod hijriy 1163 yoki 1164 (milodiy 1740 - 1742 yillar orasida) yilda dunyoga kelgan. Otasi davrida u Karmana va keyinchalik, Qarshi viloyatining hokimi bo'lgan. Shuningdek, aksariyat tarixiy manbalarda Amir Shohmurod (hukmronlik davri: 1785-1800 yy.) shaxsiyati haqida ijobiy fikrlar bildiriladi. Jumladan, Mirza Abdulazim Somiy Amiri Mas'um va g'oziy nomini olmish Amir Shohmurodning odil va haqgo'y hukmdorligini ta'kidlasa[6], Mirzo Salimbek esa, farosatli, aqlli va taqvodor bo'lganligi sababli “jannatmakon” deb atalganligi haqida ma'lumot berib o'tadi[7]. Shohmurod otasi vafotidan so'ng, milodiy 1785-yil Buxoro taxtiga o'tiradi. So'ngra o'z ukalarini viloyatlarga hokim etib tayinladi, lekin keyinroq barchasini o'z

lavozimidan chetlashtirdi. Rofiziylar(shialar) zulmidan jabr ko'rgan marvlik sunniy aholi xohish istagi bilan 1788-yil Marvga yurish boshladi. Bu voqea Mirzo Salimbekning "Kashkuli Salimiy" kitobida quyidagicha bayon etilgan ekan: "Amir Shohmurod Marv hokimi Bayramalixonning zulmlaridan jabr ko'rgan sunniy Marv aholisi taklifi bilan unga qarshi jang boshladi va Bayramalixonni qatl ettirdi"[8]. Amir Shohmurod haqida gapirar ekanmiz unga xos kamtarlik aytmay bo'lmaydi. Kitobda yozilishicha Amir Shohmurod faqirlik libosida yurardi. Sallasi karbosdan edi. Dastlabki davrlarda shohlik tojini kiymay yurdi. Ko'hna po'stini qo'y terisidan tikilgan edi. Oddiy kovush va mahsi kiyib yurardi. Xonlik unvonini o'ziga begona tutar, akobirlar to'yiga bormas edi, hech kimning tuhfasini ham qabul qilmas edi. Yeydigan narsasi non va choy, taomi moshova, suvli xamir bo'lib, haftada bir chorak go'sht ahli ayoli nafaqasi hisoblanardi. Uning zamonasida bid'atlar o'rtidan ko'tarilgan edi[9].

Amir Shohmurod 1785-yilda amirlik hududida pul islohoti o'tkazib, sof kumush va oltindan tangalar zarb qildirgan. Ushbu tangalarda ilk marta "amir" unvoni tilga olingan. Bu o'rinda "amir" so'zini "amir ul-mo'minin" - "mo'minlar amiri" ma'nosida sharhlash mumkin[10]. Buxoro amirlari aynan Shohmurod davridan boshlab arab xalifalari va Usmonli turk sultonlari singari o'zlarini butun musulmon dunyosining diniy hukmdori hisoblab, "Buxoro - islom dinining tayanchi va qudrati" degan fikrga tayanganlar. Amir Shohmurod bundan tashqari, moliyaviy, ma'muriy, sud va harbiy sohalarda ham katta islohotlarni amalga oshirgan. U muhtasib (rais) mansabi va qo'shinda qozi askar lavozimini joriy etgan. Shuning uchun ham zamondoshlari va kelajak tarixchilari Shohmurodni "Amiri ma'sum" - "Begunoh amir" va "Umari Soniy" - "Ikkinchi Umar", "g'oziy" unvonlari bilan tilga olishadi. Bundan tashqari, Shohmurodni yoshligida otasi tomonidan "Begijon" deb e'zozlanganligini sharqshunos olim German Vamberi (1832-1913) "Buxoro yohud Movaraunnahr tarixi" (Sankt-Peterburg, 1873) kitobida ta'kidlab o'tadi. Rus tarixchisi L. Sobolev Amir Shohmurodni o'zbeklar orasida "Bekjon" nomi bilan tanilganligini yozadi. Ahmad Donish mang'it amirlarining faoliyatiga ko'p hollarda salbiy baho bersada, ammo Amir Shohmurodni xalifa Umar bilan bir qatorga qo'yib, amirlik kiyimini kambag'allik kiyimi bilan bezadi, jahon bog'idan dushmanlik va yomonlik tomirini sug'urib tashladi va adolat nihollarini o'tkazdi, deb uning davlatni boshqarishda tutgan siyosatini yuksak baholaydi[11].

Ahmad Donish o'zining "Risola yoxud mang'itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi" kitobida yana Amir Shohmurod haqida quyidagilarni yozadi: "o'zini yeyishdan tiyar edi, chunonchi bir kuni yegulik uchun merosiy yerdan (ya'ni otasi mulkidan) g'alla olguncha o'z piridan yarim man bug'doy qarz so'ragan. Shahzodaning Davlat nomli g'ulombachchasi bir kuni o'ziga berilgan bug'doydan to'kilgan donni tirnoqlari bilan terayotgan edi. Shu vaqt ichkaridan chiqib qolgan shayx: "Kimsan va bu yerda nima qilayapsan?" deb so'radi. "Men amirzodaning g'ulombachchasi bo'laman, qarzga bug'-doy olish uchun kelgandim, endi to'kilganlarini termoqdaman", dedi. Shayx bu javobdan xursand bo'lib: "Amirzodaga jonu

diling bilan xizmat qilgin.Sen va avloding uning davrida vazir,hukmgir bo'lasizlar",dedi.G'ulom bu xabarni amirzodaga yetkazadi.

Hokimiyat tepasiga kelgandan so'ng u hamma balolarning sababchisi vazirning irodasizligi va qozining ko'plab jabr-sitamlari natijasi ekannligini anglab yetdi.Bir kuni saroyda odamlarni qabul qilish va katta majlis o'tkazish bilan bog'liq majburiyatlarni o'tab bo'lgandan so'ng otasini taxtga o'tkazib,o'zini esa besh- olti mahramlari bilan Ark darvozasi oldidagi to'pchi xonada yashirinib turadi.Shu vaqt qozi Nizomiddin otiga minayotgan edi.Amirzoda shahd bilan pistirmadan chiqib,uni xanjar bilan kindigigacha yorib tashladi.Qozining bir oyog'i uzangida,bir oyog'i yerda qoldi.Shahzoda jasadni Ark jilovxonasida otlarning oyog'I ostiga tashlashni buyurdi va xalqqa qilgan murojaatida "Adolat qaror topmog'I uchun qozi Nizomiddinning mol-mulki talon-taroj qilinishi lozim,kim nima olsa,o'shaniki",deb qayd etildi.Shu vaqtda hokimlar,sayyidlar,qabila boshliqlari saroydan qaytishayotgan edi.Bu voqeani ko'rgan zulmkor,fisq-fasodchilar-ning etlari qotdi,qo'rquvdan ranglari o'chdi,yashashdan umidlari uzildi"-deb yozgan edi kitobida.

Ahmad Donish "Risola yoxud mang'itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi" asarida ushbu jumalarni tilga olib o'tgan:"Shundan keyin,fisqu-fasodchilar,zolimlarni bosh ko'tarib yurishga jur'ati qolmadi.Asta sekin saltanatdagi yetakchi lavozimlarni munosib odamlarga topshirdi.O'zi xudotars (Allohdan qo'rquvchi) bo'lganligi uchun katta-yu kichik undan hayiqar edi.Hech kim uning buyruqlarini inkor qilishga haddi majoli yo'q edi.Otasi hayot bo'lishiga qaramasdan,amirzoda davlat taxtiga o'tirmagan bo'lsada, hamma ulamo-yu sayyidlar, amiru hokimlar uning amru farmoniga bo'ysunadigan bo'ldi."

Amir Shohmurodga davlatni boshqarish vakolati zimmasiga tushgandan so'ng, dastavval birinchi amalga oshirgan ishi mamlakatda siyosiy boshqaruv bo'yicha qat'iy tartibni o'rnatish bo'ldi. Ya'ni, soxta xonlik an'anasiga chek qo'yib, ashtarxoniy Abulg'ozini taxtdan chetlashtiradi va taxtni rasman o'zi egallaydi. Abulg'ozixonga esa Buxoro shahridagi Bozori Xo'ja guzaridan joy berib, o'zi va oilasi uchun umrbod nafaqa tayinlaydi. So'ngra, o'z ukalarini viloyatlarga hokim etib tayinlaydi, lekin keyinroq barchasini o'z lavozimlaridan chetlashtiradi. Mang'itlar faoliyatini yorituvchi manbalarda Amir Shohmurodning shariat normalariga qat'iy amal qilganligi hamda, shariat talablariga javob bermaydigan barcha narsalarni bekor qilganligi haqida ma'lumotlar uchraydi. Somiyning ma'lumotlariga qaraganda, Amir Shohmurod davrida barcha bid'atlar bekor etilib, sunnati Rasul yana kuchga kiradi. U shariatni keng miqyosda yoyib, o'z holiga tashlab qo'yilgan vaqflarni qayta tiklaydi, masjid-u madrasalarni ta'mir ettirib, qadamjoyi avliyolarni obod qiladi. Turk tadqiqotchilaridan biri Nurettin Hatino'g'li ham tarixiy manbalarga asoslanib, Amir Shohmurod islom dinini mustahkamlovchi qonunlar chiqarganligi, dinning tayanchi bo'lmish ulamolar uchun vaqf yerlarini ajratgani, Usmonli turklar Misrni fath etganida xalifalik maqomini qayta tiklagan bo'lsa, Buxoro amirligida ham shayxulislom maqomini joriy etganligini yozib o'tadi. Ahmad Donishning yozishicha, u har doim

...bularni (ya'ni davlat amaldorlarini nazarda tutilmoqda) tartibga solish davlat va dinning vazifasidir, aks holda, fuqaroning ahvoli shu darajaga boradi-ki, mamlakat xarobalikka yuz tutgay der edi. Shu sababli ham, u zolimlar eshigiga borishni o'zi uchun or deb bildi. Oddiy fuqarolar orasiga kirib, shayxlarning biriga shogird tushdi. Tabiiy qobiliyati tufayli, qisqa vaqt ichida dinga oid bilimlarni puxta egalladi va so'fiylar sulukidan bahramand bo'ldi, deb yozadi[12]. Shu sababli, Amir Shohmurod taxtga o'tirganidan so'ng, Muhammadhakimxon To'ra ta'biri bilan aytganda: amirlik ishlari saroyi asosini adolat kursisi ustiga o'rnatib, adolatining chamansaroyi sitam shohini fano shamshiri bilan kesib, sipoh va raiyatni o'z qanoti ostiga oldi. Amir Shohmurod o'z faoliyatida ommaga suyanib ish tutgan. U shahzodalik davridayoq xalq manfaatini ko'zlab, otasi davrida mavjud bo'lgan qo'shimcha yig'imlar, soliqlarni olib tashlaganligini Ahmad Donish o'z asarida qayd etib o'tadi. Rus tarixchisi Sobolevning yozishicha, Amir Shohmurod mamlakat iqtisodiy ahvolini yaxshilash uchun muhim chora-tadbirlarni amalga oshirgan[13]. U amirlikda pilladan ipak olishning takomillashtirilgan usulini joriy qildi, sug'orish tizimini yaxshilash maqsadida, ko'plab kanallarni qazdirdi, ishlov berilmagan yerlarni o'zlashtirib, aholini ko'chirtirdi. XVIII asrning oxiriga kelib, pilladan ipak olish - sanoatning muhim tarmog'iga aylandi. Buxoro, Samarqand, Urgut va boshqa shaharlarda dastgohlarda adras, va yarim ipakdan bo'lgan matolar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Ipak va yarim ipak buyumlar qo'shni bekliklar va xonliklarga, qirg'izlarga va Rossiyaga eksport qilish yo'lga qo'yildi[14]. Amir Shohmurod tashqi siyosatida Marv, Balx va boshqa hududlarni Buxoroga qaytarish uchun Xurosonga qilgan harbiy yurishlari alohida ajralib turadi. U bir tomondan xalqqa, ikkinchi tomondan lashkarga suyanib, mamlakat siyosiy yaxlitligini ta'minlash bilan birga, eronlik Nodirshoh bosqini yilida (1740) Buxoro ixtiyoridan chiqqan Xurosonni qaytarish uchun harbiy harakatlarni boshlab yuboradi. Buning uchun Xurosonni o'z qo'lid tutib turgan durroniylar (ya'ni hozirgi Afg'oniston davlatiga asos solgan sulola) namoyondasi Temurshoh (1773- 1793) bilan kurash olib boradi. Qo'qon tarixchisi Muhammadhakimxon to'ra ular o'rtasida bo'lib o'tgantafsilotlarni o'z asarida quyidagicha yoritadi: "Shohmurodbiy zamonasida Temurshoh ibn Ahmadshoh afg'on Kobuldan Movarounnahr qasdida bir necha masofalarni bosib o'tib, Aqcha (Oqcha) ga kelib tushdi. Bu shohning kelganidan Shohmurodbiy valina'mi (Izoh: valine'mat) xabar topib, Buxoro qo'shini bilan ul tarafga yurdi va Jayhun (Amudaryo) daryosidan hech narsani o'ylab- qo'rqib o'tirmasdan kechib o'tganicha shaharlar onasi (ummu al-bilod) Balx yaqiniga borib, qo'sh tashladi[15].

Amir Shohmurod faoliyati yuzasidan xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Buxoro amirligi siyosiy va iqtisodiy jihatdan ancha mustahkamlandi. U tomonidan mamlakatda xalq manfaatlarini ko'zlab amalga oshirilgan soliq va sud islohotlari davlatning ijtimoiy - iqtisodiy ahvoliga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, Buxoro amirligida davlatchilikni taraqqiy etishi Amir Shohmurodning faoliyati davriga to'g'ri keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCE)

1. Саййид Мансур Олимий. Бухоро – Туркистон бешиги. Форс тилидан таржима, таржимон номидан сўзбоши ва айрим изоҳлар билан Ҳ. Тўраев. «Бухоро», 2004.
2. Мирза Абдулазим Сомий. Манғит султонлари тарихи ёки Бухоро хонлигининг инқирози. Форс – тожик тилидан И. Султонов таржимаси // «Шарқ юлдузи», 1993. № 3, 4, 5, 6.
3. Mirza Salimbek.Kashko'liy Salimiy.Fors tojik tilidan Narzullo Yo'ldoshev tarjimasii. "Buxoro", 2003
4. Ражабов Қ. Муҳаммад Раҳимхон манғитлар сулоласи асосчиси // Бухоро мавжлари, 2005.
5. Ражабов Қ . Муҳаммад Дониёлбий оталиқ (бийлик мансабидан амирлик рутбасигача) // Бухоро мавжлари, 2005.№4.
6. Ражабов Қ. Амир Шохмурод ёхуд Амири Масъум (Турон тарихида тутган ўрни) // Бухоро мавжлари, 2006. №1.
7. Sobolev L. Latest history of the khanates of Bokhara and Kokand. Translated from the Russian of the "Turkestan gazette" for 1876 by P. Mosa–Calcutta: Foreign Department press. 1876.
8. Мирза Салимбек. Тарихи Салимий (источник по истории Бухарского эмирата). Перевод с персидского Н. Норкулов. –Ташкент: Академия, 2009.
9. Аҳмад Дониш. Наводир ул вақое (Нодир воқеалар). Форс – тожикчадан А. Ҳамроев ва А. Шокиров таржимаси.–Тошкент: Фан, 1964.
10. Муҳаммад Али Балжувоний. Тарихи Нофеий (Фойдали тарих). Тожик тилидан таржима, сўзбоши ва айрим изоҳлар муаллифлари Ш. Воҳидов ва З. Чориев . –Тошкент: Академия, 2001.
11. Муҳаммадҳакимхон Тўра. Мунтахаб ат - таворих (Хўжанд ва Бухоро тарихи, саёҳат ва хотиралар) Форс – тожик тилидан Ш. Воҳидов таржимаси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010.
12. Мирзо Сирожиддин Ҳаким. Туҳафи аҳли Бухоро (Сафарнома). – Душанбе, «Адиб», 1992.
13. Naimov I. A coverage of the activities of the Mangitic Emirs in the works of Ahmad Donish // International Journal on Integrated Education. – Indonesia, 2021. Vol. 4. No. 5. – P. 36-45 (Impact Factor: SJIF 7.242).
14. Naimov I. Issues of religious tolerance in the work of Ahmad Donish "Meyor-ul-tadayun" // International Journal of Intellectual and Cultural Heritage Volume: 2 Issue: 02|2022. – P. 169-175.
15. Naimov I. Ahmed Daniş'in Tıp, Güzel Sanatlar ve Müziğe Ait Bilimsel Eserlerindeki Islahatçılık Fikirlerinin Yorumlanması // YENİ TÜRKİYE (Yeni Türkiye Stratejik Araştırma Merkezi). – Ankara, 126/2022. – V. 330-338.